

O‘ZBEKISTONDA KAPITAL SAMARADORLIGINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI

Norqulov Mirsaid To‘lqin o‘g‘li

Termiz davlat universiteti
i.f.f.d., PhD., o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida kapital samaradorligini baholashning makro va mikroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tadqiq etildi. Tadqiqot davomida 2018-2024-yillardagi yalpi asosiy kapital jamg‘arish, ICOR, kapital mahsuldorligi, ROIC, ROCE va ROA indikatorlari tahlil qilindi. Shuningdek, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo‘yicha kapital rentabelligi baholandi hamda O‘zbekistonning kapital samaradorligi ko‘rsatkichlari Qozog‘iston, Rossiya, Xitoy va Vyetnam bilan qiyoslandi. Tadqiqot natijalari telekommunikatsiya va kimyo sanoatida kapital samaradorligi yuqori ekanligini, qurilish va energetika tarmoqlarida esa kapitaldan foydalanish samarasi pastligini ko‘rsatdi. Kapital samaradorligini oshirish uchun investitsiya siyosatini optimallashtirish, raqobat muhitini kengaytirish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: kapital samaradorligi, ICOR, ROIC, ROCE, EVA, investitsiya, iqtisodiy o‘shish, kapital mahsuldorligi, YAİM, WACC.

Аннотация

В данной статье исследовались макро- и микроэкономические показатели оценки эффективности капитала в экономике Узбекистана. В ходе исследования были проанализированы показатели валового накопления основного капитала, ICOR, производительности капитала, ROIC, ROCE и ROA за 2018-2024 годы. Также была проведена оценка рентабельности капитала по основным отраслям экономики и сравнительный анализ показателей Узбекистана с Казахстаном, Россией, Китаем и Вьетнамом. Результаты исследования показали высокий уровень эффективности капитала в телекоммуникационной и химической промышленности, а также относительно низкую результативность использования капитала в строительстве и энергетике. На основе анализа были разработаны научные предложения по оптимизации инвестиционной политики, развитию конкурентной среды и укреплению инновационной инфраструктуры.

Ключевые слова: эффективность капитала, ICOR, ROIC, ROCE, EVA, инвестиции, экономический рост, производительность капитала, ВВП, WACC.

Abstract

This article examined macroeconomic and microeconomic indicators for assessing capital efficiency in the economy of Uzbekistan. The study analyzed gross fixed capital formation, ICOR, capital productivity, ROIC, ROCE, and ROA indicators for the period 2018-2024. Capital profitability across major sectors of the economy was evaluated, and Uzbekistan's capital efficiency indicators were compared with those of Kazakhstan, Russia, China, and Vietnam. The research findings demonstrated high capital efficiency in the telecommunications and chemical industries, while construction and energy sectors showed relatively low efficiency in capital utilization.

Based on the analysis, scientific recommendations were developed to optimize investment policy, strengthen the competitive environment, and improve innovation infrastructure aimed at increasing capital efficiency and supporting sustainable economic growth.

Keywords: capital efficiency, ICOR, ROIC, ROCE, EVA, investment, economic growth, capital productivity, GDP, WACC.

KIRISH

Iqtisodiy o‘shishning sifatli va barqaror bo‘lishini ta‘minlashda kapital resurslarining samarali jalb etilishi va ishlatilishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyada kapital samaradorligi - bu birlik jalb qilingan kapital hajmiga to‘g‘ri keladigan mahsulot, foyda yoki iqtisodiy qo‘shilgan qiymat miqdoridir. Kapital jadalligi yuqori, ammo uning samaradorligi past bo‘lgan iqtisodiyot yuqori YAIM o‘shish sur‘atiga erishsa-da, bu o‘shish “arzimagan” va davomiylikka ega bo‘lmazligi mumkin. Dunyo iqtisodiyotida kapital samaradorligi muammosi ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda, chunki raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot va geosiyosiy birlashmalar kapital oqimlarining yo‘nalishini o‘zgartirib yubormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti 2017-yildan boshlangan keng qamrovli islohotlar natijasida sezilarli tarkibiy o‘zgarishlarni kechirmoqda. Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son tasdiqlangan “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida¹ 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 2 barobarga oshirish va aholi jon boshiga 4 ming AQSH dollaridan ziyod daromad darajasiga chiqish maqsad qilib qo‘yilgan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish yirik hajmdagi investitsiyalarni jalb etishni taqozo etadi, bu esa jalb etilayotgan kapital samaradorligini doimiy ravishda monitoring qilish va baholash muammosini oldingi o‘ringa chiqaradi.

Shu bilan birga, mavjud makroiqtisodiy statistika O‘zbekistonda yalpi asosiy kapital jamg‘arish (YAAKJ) darajasi YAIMga nisbatan 30-35 foiz oraliq‘ida saqlanib turganligini, bu esa mintaqadagi qo‘shni davlatlarga qaraganda yuqori ko‘rsatkich ekanligini namoyon etadi. Biroq, yuqori jamg‘arish me‘yoriga qaramasdan, YAIMning o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 2018-2024-yillarda 5,5 foiz atrofida qolganligi jalb etilayotgan kapitalning yetarlicha samarali ishlatilmayotganidan dalolat berishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi - O‘zbekiston iqtisodiyotida kapital samaradorligini baholashning makro va mikro darajadagi ko‘rsatkichlarini kompleks tahlil qilish hamda uni oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalar belgilandi: (i) kapital samaradorligi ko‘rsatkichlarining nazariy-metodologik asoslarini umumlashtirish; (ii) O‘zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy kapital samaradorligi dinamikasini 2018-2024-yillar oraliq‘ida hisoblab chiqish; (iii) asosiy tarmoqlar bo‘yicha ROIC, ROCE va ROA ko‘rsatkichlarini tahlil qilish; (iv) qo‘shni mamlakatlar bilan taqqoslama tahlil

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son a tasdiqlangan “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

o‘tkazish; (v) 2025-2027-yillar uchun ssenariy prognozlarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kapital samaradorligi iqtisodiy o‘shish va investitsion rivojlanishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. Klassik iqtisodiy nazariyada kapitalning iqtisodiy o‘shishdagi o‘rni A.Smit va D.Rikardo tomonidan asoslab berilgan bo‘lsa, kapital samaradorligini miqdoriy baholash masalalari keyinchalik rivojlantirilgan [1]; [2]. R.Xarrod va E.Domar tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy o‘shish modelida ICOR ko‘rsatkichi kapital va mahsulot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi muhim indikator sifatida talqin etilgan [1]; [2].

R.Solou iqtisodiy o‘shish modelida kapital samaradorligini texnologik taraqqiyot va ishlab chiqarish unumdorligi bilan bog‘liq holda izohladi [3]. P.Romer va R.Lukas tomonidan ishlab chiqilgan endogen o‘shish nazariyasida esa inson kapitali, innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar kapital mahsulдорligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida baholandi [4]; [5].

Mikroiqtisodiy darajada kapital samaradorligini baholash usullari S.Penman hamda A.Damodaran tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ular ROIC, ROCE va WACC ko‘rsatkichlari korporativ qiymat yaratishni aniqlovchi asosiy moliyaviy indikatorlar ekanligini asoslab bergan [7]; [8]. G.B.Styuart III tomonidan taklif etilgan EVA konsepsiyasi korxonaning kapital qiymatidan ortiqcha iqtisodiy foyda yaratish darajasini baholash imkonini bergan [6].

O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida kapital samaradorligi masalalari N.Kempos va F.Koriselli tadqiqotlarida tahlil qilingan bo‘lib, tarkibiy islohotlar investitsiya samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi qayd etilgan [9]. Ya.Kornai davlat sektorida kapital samaradorligining pasayishini “yumshoq byudjet cheklovi” konsepsiyasi bilan izohlagan [10]. Xitoy iqtisodiyoti misolida olib borilgan tadqiqotlarda investitsiyalarning tarmoqlar bo‘yicha samarali taqsimlanishi kapital mahsulдорligini oshirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tilgan [11].

O‘zbekiston iqtisodiyotida kapital samaradorligi masalalari T.Malikov, N.Toshmurodova, A.Vohobov, N.Jumayev, G‘.Bo‘riyev va M.Hamidulin ilmiy ishlarida tadqiq etilgan [15]; [16]; [17]; [18]. Ushbu tadqiqotlarda investitsiya faolligi, kapital qo‘yilmalari va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Biroq makro va mikro darajadagi kapital samaradorligi ko‘rsatkichlarini kompleks ravishda qamrab olgan tizimli tadqiqotlar yetarli darajada shakllanmagan. Shu jihatdan mazkur maqola kapital samaradorligini tarmoqlar va xalqaro qiyosiy tahlil asosida baholashi bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi ma’lumotlar manbalaridan foydalanildi:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasining makroiqtisodiy;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining soliq va byudjet hisobotlari;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy statistika byulletenlari;

4) Jahon banki (WDI), Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF WEO) va Osiyo taraqqiyot banki (ADB) ma'lumotlar bazalari;

5) Toshkent respublika fond birjasida listingdan o'tgan 18 ta yirik korxonalar hisobotlari.

Tadqiqot doirasi makroiqtisodiy darajani, asosiy 5 ta tarmoqni (sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, xizmatlar, energetika) va mikroiqtisodiy (korxonalar) darajani qamrab oladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan kapital samaradorligi ko'rsatkichlari makro va mikro darajalarda tasniflanib, ularning hisoblash usullari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kapital samaradorligi ko'rsatkichlarining tasnifi va hisoblash usuli¹

Daraja	Ko'rsatkich	Hisoblash formulasi	Talqini
Makro	ICOR	$YAAKJ / \Delta YAIM$	Qiymati past - samarali
Makro	Kapital mahsuldorligi	$YAIM / \text{Jami kapital zaxirasi (K)}$	Qiymati yuqori - samarali
Makro	YAAKJ/YAIM	Yalpi asosiy kapital jamg'arish / YAIM	Investitsion faollik
Mikro	ROIC	$NOPAT / \text{Jalb etilgan kapital}$	Toifa: WACCdan yuqori - qiymat yaratish
Mikro	ROCE	$EBIT / (\text{Jami aktiv} - \text{Joriy majbur.})$	Kapitalga nisbatan foydalilik
Mikro	ROA	Sof foyda / Jami aktiv	Aktivlar samaradorligi
Mikro	EVA	$NOPAT - (WACC \times \text{jalb etilgan kapital})$	Mutlaq qiymat yaratilishi

Tadqiqotda quyidagi usullarning majmui qo'llanildi: statistik tahlil usuli (dinamika, o'rtacha kattaliklar, o'sish sur'atlari); qiyosiy tahlil usuli (tarmoqlararo va davlatlararo taqqoslash); korrelyatsiya tahlili (Pirson koeffitsiyenti); indeksli tahlil usuli (baza va zanjirli indekslar); hamda ssenariy usuli (2025-2027-yillar uchun uch xil taraqqiyot yo'li).

N1: O'zbekistonda kapital samaradorligi ko'rsatkichlari (ICOR - pastlik tomon, kapital mahsuldorligi - yuqorilik tomon) 2018-2024-yillarda ijobiy tendensiyani namoyon etadi.

N2: Tarmoqlar o'rtasida kapital samaradorligi (ROIC) bo'yicha sezilarli tafovut mavjud bo'lib, yuqori texnologik tarmoqlarda u yuqori, kapital sohalarda past bo'ladi.

N3: O'zbekistonning kapital samaradorligi ko'rsatkichlari mintaqadagi qo'shni davlatlardan (Qozog'iston, Rossiya) sezilarli past emas, lekin Xitoy va Vyetnamga qaraganda orqada turadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotining 2018-2024-yillar oralig'idagi makroiqtisodiy kapital samaradorligi ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yalpi asosiy kapital jamg'arishning YAIMga nisbati ushbu davrda 32,5 foizdan 35,8 foizgacha o'sib, o'rtacha 33,7 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich Jahon

¹ Mnbalar asosida muallif ishlanmasi

bankining o'rtacha dunyo ko'rsatkichi (24%) va o'rta daromadli mamlakatlar o'rtachasi (29%)dan ancha yuqori bo'lib, O'zbekistonning kapital sig'imi yuqori iqtisodiyot sifatida shakllanganini namoyon etadi.

2-jadval

O'zbekistonning makroiqtisodiy kapital samaradorligi ko'rsatkichlari¹ (2018-2024 yillar)

Ko'rsatkich	Yillar				O'rtacha
	2018	2020	2022	2024	
YAIM o'sish sur'ati, foizda	5,4	1,9	5,7	6,5	5,52
YAAKJ / YAIM, foizda	32,5	31,2	34,2	35,8	33,72
ICOR (q.k.-m. nisb.)	6,02	16,42	6,00	5,51	5,98*
Kapital mahsuldorligi	0,213	0,184	0,215	0,228	0,212
Mehnat mahsuldorligi o'sishi, foizda	3,8	-1,2	4,4	5,1	3,28
Jami faktorlar mahs., foizda	1,2	-1,8	1,9	2,4	1,12

2

ICOR (qo'shimcha kapital-mahsulot nisbati) ko'rsatkichi tahlil qilinganda qiziqarli manzara ko'rinadi. 2018-yilda u 6,02 ni tashkil etgan, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli YAIM o'sishi keskin pasayishi natijasida 16,42 darajagacha ko'tarilgan, keyin 2024-yilga kelib 5,51 gacha pasaygan. Pandemiya davri istisno qilinsa, ICORning o'rtacha qiymati 5,98 ni tashkil etadi, bu esa har bir foiz YAIM o'sishiga erishish uchun YAIMning taxminan 6 foizga teng hajmdagi kapital qo'yilmasini jalb etish zarurligini bildiradi. Jahon bankining 2023-yilgi Dunyo iqtisodiy istiqboli hisobotiga ko'ra, o'rta daromadli mamlakatlar uchun optimal ICOR diapazoni 3,5-4,5 hisoblanadi. Demak, O'zbekistonda kapital samaradorligi jahon o'rtachasidan 30-40 foizga past bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha kapital samaradorligi (ROIC, ROCE, ROA) ko'rsatkichlarining 2024-yil oxiriga bo'lgan holati 3-jadvalda taqdim etilgan.

3-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kapital samaradorligi ko'rsatkichlari² (2024-yil)

Tarmoq	ROIC, foizda	ROCE, foizda	ROA, foizda	WACC, foizda	ROIC-WACC
Telekommunikatsiya	16,4	18,7	9,2	11,3	5,1
Kimyo sanoati	14,2	15,8	8,1	11,8	2,4
Yengil sanoat	11,7	13,2	7,4	12,1	-0,4
Oziq-ovqat sanoati	12,8	14,3	7,8	11,6	1,2
Energetika	8,2	9,5	5,1	10,9	-2,7
Qishloq xo'jaligi	9,1	10,4	6,2	12,3	-3,2
Qurilish	5,3	6,8	3,1	13,1	-7,8

3-jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, faqat to'rtta tarmoqda (telekommunikatsiya, kimyo, oziq-ovqat sanoati va qisman yengil sanoat) ROIC ko'rsatkichi kapitalning o'rtacha vaznli qiymati (WACC)dan yuqori bo'lib, iqtisodiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalangan holda muallif ishlanmasi stat.uz

² Manbalar asosida muallif ishlanmasi

jihtadan qiymat yaratish kuzatilmoqda. Qurilish, qishloq xo‘jaligi va energetika tarmoqlarida esa $ROIC < WACC$ holati mavjud bo‘lib, bu salbiy iqtisodiy qo‘shilgan qiymat ($EVA < 0$) yaratilayotganini bildiradi. Ayniqsa qurilish sohasidagi “ $ROIC - WACC$ ” spredi -7,8 foiz nuqtani tashkil etgan bo‘lib, bu sohadagi jalb etilayotgan kapitalning o‘z qiymatini ham qoplamasligini namoyon etadi. Bu natija N2 gipotezasini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonning kapital samaradorligi ko‘rsatkichlarini qo‘shni va raqobatdosh mamlakatlar bilan taqqoslash N3 gipotezasini tekshirishga imkon beradi (4-jadval). 2024-yil kesimida O‘zbekistonning ICOR ko‘rsatkichi (5,51) Qozog‘iston (5,12) va Rossiya (4,87)dan yuqori, lekin Tojikiston (6,78) va Qirg‘iziston (7,12)dan past. Xitoy (4,21) va Vyetnam (3,98) kabi tez o‘svuchi iqtisodiyotlar bilan taqqoslanganda tafovut yanada sezilarli.

4-jadval

**Tanlangan mamlakatlarning kapital samaradorligi ko‘rsatkichlari¹,
2024-yil**

Mamlakat	YAIM o‘sishi, foizda	YAAKJ/YAIM, foizda	ICOR	Kapital mahsuldorligi
O‘zbekiston	6,5	35,8	5,51	0,228
Qozog‘iston	5,8	29,7	5,12	0,241
Rossiya	3,6	17,5	4,87	0,283
Tojikiston	5,9	40,0	6,78	0,184
Qirg‘iziston	4,2	30,0	7,12	0,176
Xitoy	5,0	21,0	4,21	0,254
Vyetnam	6,8	27,0	3,98	0,267
Turkiya	4,5	25,8	5,73	0,219

Tahlildan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston ICOR ko‘rsatkichi bo‘yicha Xitoy va Vyetnamga qaraganda 1,3-1,5 barobar orqada turadi. Bu shuni anglatadiki, biz jalb etgan kapitalning 30-40 foiz samarasini yuqori tarmoqli iqtisodiyot davlatlaridan kam shakllantirmoqdamiz. Shu bilan birga, Rossiya va Qozog‘iston O‘zbekistondan foydaliroq kapital samaradorligi ko‘rsatsa-da, ularda yalpi asosiy kapital jamg‘arish hajmi sezilarli past. Bu esa milliy iqtisodiyot uchun strategik dilemmani keltirib chiqaradi: kapital qo‘yilmalari hajmini saqlab qolgan holda ularning samaradorligini oshirishga erishish.

5-jadval

Kapital samaradorligi ko‘rsatkichlari prognozi² (2025-2027 yillar)

Ssenariy	ICOR, 2027-yil	Kapital mahs., 2027-yil	YAIM o‘sishi (o‘rt., foizda)
Joriy holat, 2024-yil	5,51	0,228	6,5
Inersial ssenariy	5,40	0,235	5,8
Bazaviy ssenariy	4,85	0,251	6,8
Intensiv ssenariy	4,12	0,278	7,5

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

² Manbalar asosida muallif ishlanmasi

Olingan tahlil natijalariga va istiqbol modeliga asosan 2025-2027-yillar uchun uch xil ssenariy - inersial, bazaviy va intensiv - bo'yicha kapital samaradorligi ko'rsatkichlari prognoz qilindi (5-jadval).

Prognozlardan ko'rinib turibdiki, intensiv ssenariy doirasida (tarkibiy islohotlar, yuqori texnologik investitsiyalar, davlat korxonalarini xususiylashtirish, raqobatni kuchaytirish) ICORni 4,12 darajagacha pasaytirish mumkin, bu esa YAIM o'sishini 7,5 foizga yetkazish, shu bilan birga, investitsion hajmni mutanosib ravishda qisqartirish imkonini beradi. Bazaviy ssenariyda joriy tendensiyalar saqlanib qoladi, inersial ssenariyda esa kapital samaradorligi sezilarli yaxshilanish ko'rsatmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston iqtisodiyotida kapital samaradorligini baholash va uni oshirish masalasi iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Tahlillar davomida mamlakatda yalpi asosiy kapital jamg'arish hajmi yuqori darajada shakllanganligi, biroq ayrim tarmoqlarda kapitaldan foydalanish samaradorligi yetarli darajada yuqori emasligi aniqlandi. Shu bilan birga, telekommunikatsiya, kimyo va oziq-ovqat sanoatida kapital rentabelligi nisbatan yuqori natijalarni namoyon etdi. Bu holat iqtisodiyotda innovatsion va texnologik yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligi yuqoriroq ekanligini tasdiqladi.

Makroiqtisodiy tahlillar ICOR ko'rsatkichining bosqichma-bosqich pasayish tendensiyasini namoyon etganini, bu esa investitsion resurslardan foydalanish sifati asta-sekin yaxshilanayotganini ko'rsatdi. Mintaqaviy qiyosiy tahlil natijalari O'zbekiston kapital samaradorligi bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida barqaror o'rinni egallayotganini, biroq yuqori texnologik iqtisodiyotlar tajribasi asosida qo'shimcha samaradorlik zaxiralari mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, innovatsion boshqaruv va korporativ samaradorlik omillari kapital mahsuldorligini oshirishning muhim manbasi sifatida baholandi.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- investitsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirishda ICOR, ROIC hamda EVA ko'rsatkichlarini asosiy baholash mezonlari sifatida qo'llash;
- kapital samaradorligi past bo'lgan tarmoqlarda texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dasturlarini kengaytirish;
- davlat investitsiya dasturlarida iqtisodiy qo'shilgan qiymat yaratish darajasiga ustuvor ahamiyat berish;
- korxonalarda korporativ boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish va ROIC hamda ROCE indikatorlarini strategik boshqaruv tizimiga integratsiya qilish;
- innovatsion infratuzilma, ilmiy-tadqiqot faoliyati va raqamli iqtisodiyot elementlariga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushini oshirish;
- kapital bozori instrumentlarini rivojlantirish orqali xususiy investitsiyalar faolligini rag'batlantirish.

Mazkur yondashuvlar kapital resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Harrod, R. F. (1939). An essay in dynamic theory. *The Economic Journal*, 49(193), 14-33.
2. Domar, E. D. (1946). Capital expansion, rate of growth, and employment. *Econometrica*, 14(2), 137-147.
3. Solow, R. M. (1956). A contribution to the theory of economic growth. *The Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65-94.
4. Romer, P. M. (1986). Increasing returns and long-run growth. *Journal of Political Economy*, 94(5), 1002-1037.
5. Lucas, R. E. (1988). On the mechanics of economic development. *Journal of Monetary Economics*, 22(1), 3-42.
6. Stewart, G. B. III (1991). *The quest for value: A guide for senior managers*. New York: HarperCollins, 800 p.
7. Penman, S. H. (2007). *Financial statement analysis and security valuation* (4th ed.). New York: McGraw-Hill Irwin, 754 p.
8. Damodaran, A. (2012). *Investment valuation: Tools and techniques for determining the value of any asset* (3rd ed.). New York: John Wiley & Sons, 992 p.
9. Campos, N. F., & Coricelli, F. (2002). Growth in transition: What we know, what we don't, and what we should. *Journal of Economic Literature*, 40(3), 793-836.
10. Kornai, J. (2001). The hard form of the soft budget constraint. *Acta Oeconomica*, 51(3), 273-306.
11. Bai, C. E., Hsieh, C. T., & Qian, Y. (2006). The return to capital in China. *Brookings Papers on Economic Activity*, 37(2), 61-101.
12. World Bank (2024). *World Development Indicators 2024*. Washington, DC: World Bank Publications.
13. International Monetary Fund (2024). *World Economic Outlook: October 2024*. Washington, DC: IMF.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son a tasdiqlangan "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
15. Malikov, T., Toshmurodova, N. (2018). *Moliya. Darslik*. Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 472 bet.
16. Vohobov, A., Jumayev, N. (2019). *Moliya nazariyasi: o'quv qo'llanma*. Toshkent: "Iqtisod va moliya", 348 bet.
17. Bo'riyev, G'. (2020). O'zbekistonda investitsion samaradorlikni oshirishning nazariy-metodologik asoslari. "Moliya va bank ishi" jurnali, 6(82), 28-37.
18. Hamidulin, M. (2022). Kapital samaradorligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi mutanosiblik: O'zbekiston misolida. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 3, 117-129.
19. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari (2018-2024). www.stat.uz
20. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy statistika byulletenlari (2018-2024). www.cbu.uz

21. Asian Development Bank (2024). Key Indicators for Asia and the Pacific 2024. Manila: ADB Publications.

22. Toshkent Respublika Fond Birjasining yillik hisobotlari (2018-2024).
www.uzse.uz



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**